

OZON QATLAMINING YEMIRILISHI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

G'ayratov Dadajon Ilhom o'g'li

Samarqand davlat chet tillari instituti 1-bosqich talabasi

G'ayratova Malika Ilhomovna

Samarqand davlat chet tillari instituti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ozon qatlamining yemirilishi global miqyosda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muammolar sirasiga kiradi. Uning yemirilishi katta yo'qotishlarga olib keladi. Har bir kishi tabiatga e'tiborli bo'lishi kerak. Bunda har kimning o'z o'rni bor.

Kalit so'zlar

Ozon, kislorod, Stratosfera, triatomik, ekologiya, organizm, deformatsiya, ko'rinmas qalqon.

Stratosferada 40, 50 km balandlikda ozondan tashkil topgan yupqa qavat joylashgan. Ozon kislorod, azot, vodorod va xlor ishtirokidagi fotokimyoviy reaksiya asosida hosil bo'ladi. Ozon quyosh radiatsiyasi ta'siri ostida kislorodning oddiy molekulalaridan hosil bo'ladi va stratosferada uzoq vaqt qolib ozon qatlamini yaratadi. Ozonning atmosfera tarkibidagi miqdori

0,0001 % dan kamroqdir va u O₃ triatomik molekulalaridan tashkil topgan kislorodning allotropik shaklidir. Oddiy sharoitda ozon ko'k rangdagi zaharli gaz va o'tkir hidga ega. Suyultirilganda u indigo suyuqligiga, qattiq shaklda esa quyuk ko'k kulrang qora kristallga aylanadi.

Dunyoning biologik muvozanatini saqlaydigan atmosferadagi eng muhim gazlardan biri bo'lgan ozon, havoni tozalash orqali dunyo hayotining davom etishiga ulkan hissa qo'shadi.

Ozon osmonga ko'k rang beradigan va deyarli barcha yomon hidlarni yo'q qila oladigan noyob gazdir. U ma'lum bo'lgan eng kuchli dezinfeksiyalovchi va oksidlovchi gaz hisoblanadi.

Ozonning ekologiya nuqtai nazaridan eng muhim xossasi quyoshning biologik xavfli bo'lgan ultrabinafsha nurlanishini yutishidir. U quyoshning qattiq ultrabinafsha nurlanishini butunlay yutib, uning ta'sirini tirik organizmlar hujayralari uchun yumshatib beradi. So'nggi yillar davomidagi olimlarning izlanishlari ozon konsentratsiyasi doimiy ravishda kamayib borayotganini aniqlashgan. Ozon bu yer yuzini zararli nurlardan saqlab turuvchi ko'rinmas qalqondir. Yildan yilga esa havoning ifloslanishi ya'ni, zavod va fabrikalardan chiqayotgan gazlar, mashinalar va har xil turdagi elektrotexnika buyumlaridan chiqayotgan gazlar ozon qatlamini asta-sekinlik bilan yemirib bormoqda. Bundan tashqari muzlatkich va konditsionerlar uchun ishlatiladigan Freon suyuqligi ham bunga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Doimiy ravishda beriladigan bunday zararlar natijasida ozon qatlami katta deformatsiyaga uchramoqda.

Global isishning kuchayishi va insonlardagi nurlanish kasalliklari ozon qatlamining yemirilishi natijasidir. 1985-yilda Venada, 1987-yil oktabrda Monrealda ozon qatlamini himoya qilishga bag'ishlangan xalqaro bayonnomalar imzolangan yig'ilishlar bo'lib o'tgan. Ushbu bayonnomalarga ko'ra eng ko'p tarqalgan 5 xil turdagi xlorftor uglevodorlarining ishlab chiqarilishi butun dunyoda muzlatib qo'yilishi kerakligi qayd etilgan. Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish bo'yicha 2021-yilda milliy dastur ishlab chiqildi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi qarorida Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish bo'yicha dastur tasdiqlandi. Milliy dastur asosida ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish harakatlarining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Ishonamizki dastur Vazirlar Mahkamasi ozon qatlamini buzuvchi moddalar

iste'molini tartibga solish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi. Dastur asosida OBMni va ularning tarkibidagi mahsulotlarni O'zbekistonga olib kelish va olib chiqishni to'xtatish hamda bunda qattiq nazoratni o'rnatish, OBM va tarkibida ular mavjud bo'lgan mahsulotlarning importi va eksporti bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantirish asosida, OBMni qayta ishlash bo'yicha 6 ta markaz tashkil qilish kerakligi aytib o'tilgan.

Bizning vazifamiz sifatida aytishim mumkinki har xil turdagi zaxarli, ozon qatlamiga zarar yetkazuvchi moddalarni ishlab chiqarishni to'xtatish va zavod, fabrikalardan chiquvchi gazlarni zararsizlantirish yo'lini topish. Ommaviy ravishda o'rmonlarni kesib tashlashga yo'l qo'yimaslik va tabiatni ko'kalamzorlashtirishga katta e'tibor berish lozim. Har xil turdagi chiqindilar va xazonlarni yoqmaslik, ularni yo'qotishni boshqa yo'llarini topish ham ozon qatlamini va ayniqsa havomiz ifloslanishiga hissa qo'shmaslikni oldini oladi. Olimlarning so'nggi izlanishlari natijasida ozon qatlamini regeneratsiya qilish va unda hosil bo'lgan tuynuklarni yamash yo'llari topilgan. Buning uchun esa juda katta mablag' talab etiladi. Biz buning uchun davlatlar aralashuvi va barcha muammolar yo'qolishini tilab qolamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.